

PROFESSIONAL TA'LIM JARAYONIDA EVRISTIK YONDASHUVNI JORIY  
ETISHNING MAQSADI VA MOHIYATI

**Turdiyev Jamoliddin Pardaboy o'g'li**

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti katta  
o'qituvchisi [turdiyevjamoliddin63@gmail.com](mailto:turdiyevjamoliddin63@gmail.com) (+99897-315-49-59)*

**Qahramonov Mironshoh Serali o'g'li**

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti talabasi  
[turdiyevjamoliddin63@gmail.com](mailto:turdiyevjamoliddin63@gmail.com) (+99897-315-49-59)*

**Oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash va o'qitishning pedagogik  
texnologiyalari sohasidagi innovatsiyalar sho'basini.**

*Bu maqolada professional ta'limdagi o'qitish jarayonida evristik yondashuvning asosiy maqsadi va vazifasi o'quvchilarda tanlagan kasbi (mutaxassisligi) bo'yicha kasbiy mahorat asoslarini shakllantirib, ularni egallayotgan kasbi bo'yicha bo'lg'usi kasbiy-mehnat faoliyatiga amaliy tayyorlashdan iboratdir. Shuningdek, evristik yondashuv o'qitish jarayonida tegishli zaruriy ko'nikmalarni shakllantirish uchun kasb (mutaxassislik) bo'yicha bilimlar berilishi yoritib berilgan.*

**Tayanch so'zlar:** *professional ta'lim, evristik yondashuv, evristika, didaktik evristika, evristik ta'lim, umumtexnik tayyorgarlik, umumkasbiy, o'qitish mazmuni.*

Professional ta'lim yo'nalishi bakalavrlarining umumtexnik tayyorgarligini evristik masalalar vositasida takomillashtirish uchun oliy ta'lim muassasalarida zaruriy pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlash bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisining umumtexnik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish, psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash hamda ularning umumtexnik tayyorgarligining takomillashganlik darajasini aniqlovchi mezonlarni asoslash lozim. Bu mezonlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida 32 o'z aksini topgan. "Professional ta'lim" yo'nalishi talabalarining umumtexnik tayyorgarligini evristik masalalar vositasida takomillashtirish uchun oliy ta'lim mazmuni va sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalarning jadal qo'llanilishi hamda evristik yondashuvlarni joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

Evristik yondashuv Qadimgi Yunonistonda ishlab chiqilgan uslublarning butun majmui (kompleksi) asosida yangi nostandart masalalarni yechishda

keng qo'llanilgan. Bu uslublar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: masalalarni oxiridan boshlab yechish (regressiv fikrlash), tahlilning ikki turi – “topish va isbotlash”ga oid masalalarni yechish. Ular inson aql-zakovati va tasavvurini faollashtirishga qaratiladi. Intellektual xatti-harakatlar – bu mantiqiy va evristik qoidalar, amallar (operatsiya)lar tizimi bo'lib, bunda olingan axborot tahlil etilib, qayta ishlanadi va yangi axborotga aylantiriladi. Texnik masalalarga nisbatan shuni ta'kidlash joizki, ularning intuitiv yechimi ko'pincha texnik faoliyatdagi muhim tajribalar asosida amalga oshiriladi. Texnik masalani yechishda agar kerakli natijaga erishilmasa, “sinash va xato qilish” usuli qo'llanilaveradi, evristik izlanishlar asosida muqobil (alternativ) natijalar soni kamaytiriladi.

Evrastika yunoncha heurisko so'zidan kelib chiqqan bo'lib, topish, izlash, kashf etish ma'nolarini anglatadi.

Evrastika:

1) antik falsafada “haqiqatni topish san'ati”, nazariy tadqiqotlarning mantiqiy usullari va metodologik qoidalari tizimi sifatida talqin etiladi;

2) psixologiyaning fikriy faoliyat (amallar)ni o'rganuvchi bo'limi bo'lib, turli masalalarni yechishda, ya'ni evristik faoliyat jarayonida insonning samarali ijodiy fikrlashini o'rganadi;

3) pedagogikada – talabalarning topqirligi, faolligini rivojlantirishga qaratilgan turli xil savollar qo'yish orqali ularni ijodiy o'qitish usuli;

4) evristika tor ma'noda – yangiliklarni kashf etish, yaratish jarayonida muammo yechimlarni izlashning maxsus uslubi va usullari yig'indisi (evristik uslublar va metodlar)ni bildiradi.

Evrastika yangi vaziyatlarda harakatlarni tashkil etish va amalga oshirish qonuniyatlarini o'rganadigan fan bo'lib, evristik faoliyat – tevarak-atrofga, olamga faol munosabatda bo'lish shaklidir. Evristika axborotni maqsadga muvofiq ravishda o'zgartirish va uni olishga yo'naltirilgan turlicha fikrlash shakllarini nazarda tutadi. Harakatlarning evristik tizimi yangi ma'lumotlarni izlashdan iborat bo'lib, murakkab masalalar asosan evristik usullar yordamida hal etiladi.

Evrastikaning asosini psixologiya, xususan, uning ijodiy yoki samarali fikrlash psixologiyasi deb ataladigan bo'limi evristikani tashkil etadi, degan fikr keng tarqalgan. Masalan, texnik ijodkorlikning evristik usullaridan foydalanish (bevosita va bilvosita aqliy hujumi, evristik metodlar va morfologik tahlil va sintez metodi) kompyuter muhandisligida talabalarning ijodiy tasavvurlari va ixtirochilikka - yangi texnik yechimlarni yaratishga birinchi qadamlarni qo'yish qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Evristika predmeti deyilganda yangi bilimlarni loyihalash qonuniyatlari, mexanizmalari

va metodologik vositalarini, tajriba natijalarni umumlashtirish va kelajak modelini aks ettirish asosida yaratiladigan faoliyat va muloqot usullarini aniqlash, qayta ishlash va tartiblashtirish tushuniladi.

Evristik yondashuv yoki evristik faoliyat deganda insonning atrof-olamga bo'lgan o'ziga xos munosabati tushunilib, ushbu munosabat asosida axborotni mantiqiy yo'l bilan o'zgartirish va qayta o'zgartirishga yo'naltirilgan evristik uslublar yotadi. Evristik faoliyat bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bochqichda - maqsad va masala ifodalanadi, ikkinchi bosqichda - shaxsiy tajribani hisobga olgan holda ob'ektlar o'rtasidagi aloqalar belgilanadi va aniqlanadi, uchinchi bochqichda - masalani yechish rejasi ishlab chiqiladi, to'rtinchi bosqichda - masala o'rganiladi va yechiladi.

Bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining umumtexnik ijodiy qobiliyat va tayyorgarligini rivojlantirish muammosiga evristik yondoshish quyidagilarni nazarda tutadi:

- talabalarning o'qituvchi bilan didaktik o'zaro aloqada amalga oshiriladigan evristik faoliyati – bu ularning motivlarini, ichki mayilliklarini faollashtirish, izlash-bilish harakatlariga jalb etish; izlanish faoliyatini amalga oshirish, strategiyani shakllantirish, axborot va protsessual topish bo'yicha potensial imkoniyatlarini ochish, muammolar orqali bilish masalalarini yechish rejasini tuzish va ularni amalga oshirish bo'yicha talabalarning potensial imkoniyatlarini ochishda o'qituvchining yordamini evristika qonununiyatlari asosida ta'minlash;

- o'qituvchi tomonidan talabalarning evristik faoliyatini tashkil etish (rahbar bilan didaktik o'zaro aloqada amalga oshirish) – pedagogikning bunday ta'sir ko'rsatishi talabalarning izlanish faoliyatini tartibsiz holda emas, balki muayyan tizim asosida amalga oshirish imkonini beradi, uning tizimliliigi va izchilligini ta'minlaydi;

- o'qituvchining talabalar evristik faoliyatini boshqarishi – talabalarning tashabbuskorligiga, izlanish faoliyatini tashkil etishi va amalga oshirishiga, yakunlashiga, strategiyani shakllantirish bo'yicha bilish yo'nalishini tanashga, yechim rejasini shakllantirish va ularni axborot bilan ta'minlash uchun qat'iy belgilangan tarzda ta'sir ko'rsatmasdan yordam berish. Talabalarning evristik faoliyatini boshqarish texnika va kibernetika sohasidagi boshqarishga asoslangan bo'lib, bunda boshqaruv deganda maqsadga erishishga yaqinlashtiriladigan ko'plab real alternativlardan birini tanlash uchun vaziyat yaratish nazarda tutiladi.

Xulosa qilib aytganda, texnika oliy ta'lim muassasalari professional ta'lim yo'nalishi bakalavrlarining umumtexnik tayyorgarligini evristik masalalar

vositasida takomillashtirishda ham protsessual, ham shaxsning ijodiy sifatlari takomillashib borishi lozim.

Demak, texnika oliy ta'lim muassasalari professional ta'lim yo'nalishi bakalavrlarining umumtexnik tayyorgarligi kasbiy pedagogik tayyorgarlikning murakkab tuzilmasi bo'lib, uning faoliyatini aniqlab beradi va umummadaniy, umumtexnik bilimlar, mahorat, ko'nikmalar, umumtexnik ijodiy yondashuv, shaxsning ijtimoiy yo'naltirilganligi, umuman, umumtexnik masalalar samarasi yechim topishni ta'minlovchi majmuadir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Turdiyev J.P. Professional ta'limda ishlab chiqarish ta'limining metodik ta'minoti masalalari. Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar, №4, 2020. –B. 22-26.

2. Turdiyev J.P. Kasb-hunar kollejlarda nazariy va amaliy ta'limni tashkil etish J-I: Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar, №1, 2020.

3. Samadxodjayeva D., Turdiyev J.P., Ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. Garmonichno razvitoye pokoleniye – usloviye stabilnogo razvitiya Respubliki O'zbekistan. Sbornik nauchno-metodicheskix statey. Tashkent, 2019 y. 216-218 bb.